

MAMLAKATIMIZDA JISMONIY SHAXSLARNING JAMI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASI TAHLILI

Saidrasulov Ibrohim

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-4465-5799

saidrasulovibrohim@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi va dinamikasi, jismoniy shaxslarning jami daromadlarining davlat byudjeti daromadlari va soliqlar kesimidagi ulushi aholi jami daromadlari o'zgarishi, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini o'rganish orqali ularning davlat byudjeti daromadlariga ta'siri raqamlar bilan tahlil qilingan, shuningdek tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, daromad, jismoniy shaxs, mol-mulk, ijara, jami daromad, dinamika, davlat budjeti, davlat daromadlari, bandlik.

АНАЛИЗ СТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ СОВОКУПНЫХ ДОХОДОВ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Саидрасулов Иброхим

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются структура и динамика совокупных доходов физических лиц в нашей стране, доля совокупных доходов физических лиц в доходах государственного бюджета и налогах, изменение совокупных доходов населения, а также влияние имущественных доходов физических лиц на доходы государственного бюджета посредством исследования их влияния на доходы государственного бюджета, а также разрабатываются соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: налог, доход, физическое лицо, имущество, арендная плата, совокупный доход, динамика, государственный бюджет, доходы государства, занятость.

ANALYSIS OF THE STRUCTURE AND DYNAMICS OF TOTAL INCOME OF INDIVIDUALS IN OUR COUNTRY

Saidrasulov Ibrohim

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the structure and dynamics of the total income of individuals in our country, the share of total income of individuals in state budget revenues and taxes, changes in total income of the population, and the impact of property income of individuals on state budget revenues through a study of their impact on the state budget revenues, as well as developing relevant conclusions and proposals.

Keywords: tax, income, individual, property, rent, total income, dynamics, state budget, state revenues, employment.

Kirish.

Butun dunyo amaliyoti tasdiqlashicha, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish ularning iqtisodiy faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Davlatlarda soliq yuki, soliq to'lovlari soni, soliqlarni undirilishi bo'yicha vaqt sarfi holatidan kelib chiqqan holda xalqaro darajada "Soliqlarni to'lash" reytingi (Paying Taxes 2019), e'lon qilinib kelinmoqda. Unda mamlakatlarlar kesimida mehnat haqiga soliqlar masalalariga ancha jiddiy e'tibor ko'rilmoqda. Ushbu jihat jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotiga xalqaro tashkilotlar tomonidan ham jiddiy e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, "soliqqa tortish masalasida amaliyotdan o'tgan tamoyillar va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa davlatlarning ilg'or tajribasidan samarali foydalanish o'ta muhim ahamiyatga ega". Umuman, iqtisodiy -ijtimoiy rivojlanishning ayni vaqtdagi bosqichida aholining turmush darajasini, jamiyatning oila institutining moliyaviy barqarorligini, iqtisodiy salohiyatini, mamlakatlar jismoniy shaxslari daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi faoliyatini ta'minlovchi samarali soliq siyosatini shakllantirish masalalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Jahon ijtimoiy rivojlanish yakunlarini baholash va aholi farovonligini oshirish tadbirlari tizimida hamda jahon soliq amaliyotida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi samarali modellari, ularning qiyosiy ko'rsatkichlari tizimi, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari masalalari ochib berilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Aholi daromadlarini soliqqa tortish prinsiplari, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish nazariyasi, jismoniy shaxslar daromadlaridan soliqning iqtisodiy mazmuni va fiskal elementlarining nazariy asoslari turli davrlarda qator xorijiy va mahalliy.

Xorijiy olimlardan Dornbusch va Fischer (2018) ta'kidlaganidek, aholining jami daromadlari mamlakat iqtisodiy barqarorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Ularning fikricha, daromadlarning tarkibi va o'sish sur'atlari iste'mol, jamg'arma hamda investitsiya hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, Stiglitz (2021) o'z tadqiqotlarida daromadlarning adolatli taqsimlanishi ijtimoiy tenglik va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi omil ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, aholining jami daromadlari o'sishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligi, balki soliqqa tortish mexanizmlarining takomillashuvi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Mahalliy olimlardan Qayumov (2016) fikricha, jismoniy shaxslarning jami daromadlarini tahlil qilishda ularning manbalari, ya'ni mehnat daromadlari, tadbirkorlik faoliyati natijasidagi daromadlar hamda passiv daromadlar (ijara, foiz, dividend va boshqalar) alohida o'rganilishi lozim. Olim daromadlarning o'sish dinamikasi mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar samaradorligini baholash imkonini berishini qayd etadi.

Rasulov va Abdullayev (2019) "Aholining jami daromadlari tarkibidagi o'zgarishlar, bir tomondan, iqtisodiy faollikning oshganini, ikkinchi tomondan esa bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining chuqurlashayotganini ko'rsatadi", deb ta'kidlaydi. Ularning fikricha, daromad manbalarining diversifikatsiyasi aholining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Bo'riyev (2020) esa o'z tadqiqotida aholining jami daromadlari o'sish sur'atlari bilan iste'mol darajasi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikka e'tibor qaratib, real daromadlarning oshishi aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Nasriddinova (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa jismoniy shaxslarning jami daromadlarini shakllantiruvchi omillar sifatida mehnat unumdorligi, bandlik darajasi, soliqqa tortish stavkalari va ijtimoiy to'lovlar tizimi ko'rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi va dinamikasini chuqur tahlil qilish mamlakat iqtisodiy salohiyatini

baholash, ijtimoiy siyosatni takomillashtirish hamda aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqoting metodologiyasi.


Maqolada yurtimizda jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili va jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i va ularga berilgan imtiyozlarni aniqlab olishga hamda bu turdagi daromadlarni soliqqa tortish samaradorligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda jismoniy shaxslar jami daromadi tushunchasi, ularning tarkibi, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ini amaliyotga joriy qilish asoslari, jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada yetuk iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari o'rganilgan va statistik ma'lumotlar asosida natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq tizimini isloh qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – fuqarolar va korxonalar zimmasidagi soliq yukini yengillashtirilishi orqali ishlab chiqarishni jonlashtirish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishdir. Bu mamlakatimizning soliq siyosati bilan amalga oshiriladi va tartibga solinadi. Zero, har qanday mamlakatning soliq siyosati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki har bir davlatning iqtisodini yuksalishi, o'sish surati, aholisining farovonligi, investitsiya qilish qudrati unda joriy qilingan soliqlarning umumiy miqdori, yukining qay darajadaliligiga bog'liq. Bularni belgilash va amalga oshirish mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosatiga bog'liq. Shy jihatdan O'zbekistonning soliq siyosati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'zbekistonda erkin tadbirkorlikning yanada rivojlanib borayotganligi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, ishbilarmonlik sohasidagi daromadlarga cheklovlarning barham topilishi bilan topilayotgan daromadlarning turlari ham ko'payib bormoqda, shu bilan birga yuqori daromad oladigan jismoniy shaxslar soni asta-sekin ko'payib bormoqda. Shuning uchun ham hozirda soliqqa tortish amaliyotimiz kam va yuqori daromad oladigan jismoniy shaxslarni guruhlash tizimiga o'tish tadbiri daromadlarni adolatli ravishda soliqqa tortish tizimi tomon muhim qadam bo'ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjeti daromadlarida salmoqli o'rinni egallab, umumdavlat soliqlari va to'g'ri soliqlar tarkibiga kiradi (1-rasm).



1-rasm. 2024-yil davlat byudjet daromadlarini soliqlar kesimidagi ulushi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1-rasm ma'lumotlarini tahlil qilishdan ko'rinib turibdiki, 2024-yil davlat byudjeti ijrosida (maqsadli jamg'armalardan tashqari) eng katta ulushni egri soliqlar tashkil etmoqda. Ular 39 foizni tashkil qilib summasi qariyb 10849,1 mlrd.so'mni tashkil qiladi. Ikkinchi o'rinni to'g'ri soliqlar tashkil etadigan bo'lsa ular 32 foizli ulushni egallab tushgan soliq tushumlari 8798,4 mlrd.so'mni tashkil etadi. 18 foiz ulush bilan resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i tushumi esa 4817,1 mlrd. so'm, davlat boji va jarimalar ulishi 5 foiz byudjet tushumlari 1312,5 mlrd.so'm hamda boshqa daromadlari ulushi 6 foizni tashkil etadi.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqdan tushumlar bo'yicha bunday natijalar sabablari sifatida quyidagilarni ajratib o'rganish muhimdir:

- aholi sonining tabiiy o'sish darajasini o'rganish;
- soliq to'lovchilar soni o'rganish;
- hududlarning yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sish tendensiyasini o'rganish;
- hududlar kesimida soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini o'rganish;
- boqimanda qarzdorlik summalarining va ortiqcha to'lov summalarining o'zgarish dinamikasini o'rganish h.k.

Darhaqiqat, 2020-2024-yillarda mamlakatimiz aholisi soni, YAIM, davlat byudjeti daromadlari va eng kam ish haqining o'sishi yuqori bo'lishiga qaramasdan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i YAIM va davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega ekanligi, nisbatan kengroq mushohada yuritishni talab etadi. Shu boisdan, biz aynan soliq to'lovchi jismoniy shaxslar dinamikasining tahliliga to'xtalishni lozim topdik.

1-jadval


Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar dinamikasi tahlili

Ko'rsatkichlar	Yillar						2025-yilda 2020-yilga nisbatan o'zgarishi (marta)
	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (prog)	
Aholi soni, ming kishi	30492,8	31022,5	31575,3	32120,5	32589,6	33254,1	1,09
Mehnatga layoqatli aholi, ming kishi	18814,0	19044,1	19257,0	19440,8	19686,2	20456,9	1,09
Jami soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soni, ming kishi	5904,5	6098,4	6108,3	6276,9	6526,7	6798,7	1,15
Mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning ulushi,%da	31,38	32,02	31,72	32,29	33,15	33,23	1,06

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, 2020-2024-yillarda aholi soni 2761,3 ming kishiga yoki 9,0 foizga, mehnatga layoqatli aholi soni 1642,9 ming kishiga yoki 9,0 foizga o'sgani holda, soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soni 894,2 ming kishiga yoki 15 foizga o'sgan. Mazkur davr mobaynida mehnatga layoqatli aholi soniga nisbatan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning ulushi 2020 yillarda yilda 31,38 foizni, 2024-yilda esa 33,23 foizni tashkil etgan, ya'ni 6 foizga o'sgan. Ushbu davrlarda soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning o'sish tendensiyasi yuqori bo'lishiga, eng kam ish haqining yuqori o'sishiga qaramasdan byudjet daromadlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ulushi pasayish tendensiyasiga ega. Bunga asosiy sabab, tahlil qilinayotgan 2020-2024-yillarda davlat byudjeti daromadlarining o'sishi yuqori bo'lganligi hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarning ko'payishidir.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar oladigan daromad solig'i stavkasi aholining olgan daromad manbasidan kelib chiqib belgilanadi, masalan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar va boshqalar. Biz keyingi navbatda aholining jami daromadlari ulushlarini tahlil qilamiz.



2-rasm. 2024-yil aholini jami daromadlarining o'zgarishi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi aholisining jami daromadlari tarkibida mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari, jami daromaddagi ulushi 87 foizni tashkil etmoqda. Keyingi o'rinni egallab turgan mulkiy daromadlari, jami daromaddagi hissasi 8 foizni egallamoqda. Moddiy naf tarzidagi daromadlar 2 foiz ulushi va o'z navbatida boshqa daromadlar 3 foizni tashkil etmoqda.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyekti jismoniy shaxslarning daromadlari bo'lib, ushbu daromadlar soliq solish nuqtai-nazaridan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar va boshqa daromadlarga ajratiladi.

2-jadval

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda		
			Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat markazlaridagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Uy-joylar:				
	- turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	28000	13500	5500
	- noturar joy		45000	26500	11000
2	Avtomobil transporti:				
	- yengil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	858000		
	- mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1705000		

Manba: O'zbekiston Respublikasi qonuni 2024-yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2025-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi - 1011-sonli Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-7277618>.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga asosan jismoniy shaxslarning egaligidagi mulklarni ijaraga berishda eng kam miqdorlar belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2024-yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2025-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlariga asosan 2025-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslarning turar joy obyektlarini ijaraga berishda 1 kvadrat metr uchun oylik ijara haqi Toshkent shahri uchun 28000 so'm, Nukus shahri va viloyat markazlari uchun 13500 so'm va boshqa aholi punktlari uchun 5500 so'mdan kam bo'lmasligi, noturar joy obyektlarini ijaraga berishda 1 kvadrat metr uchun oylik ijara haqi Toshkent shahri uchun 45000 so'm, Nukus shahri va viloyat markazlari uchun 26500 so'm va boshqa aholi punktlari uchun 11000 so'm, jismoniy shaxslarning yengil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljallangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)larini ijaraga berishda oylik ijara haqi 858000 so'm, mikroavtobus, avtobus va yuk avtomobillari uchun oylik ijara haqi 1705000 so'mdan kam bo'lmasligi belgilab berildi.

Xulosalar va takliflar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjeti daromadlarida salmoqli o'rinni egallab, u umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqdan tushumlar bo'yicha bunday natijalar va hududlar o'rtasidagi tafovutlarning sabablari sifatida quyidagilarni ajratib o'rganish muhimdir:

- aholi sonining tabiiy o'sish darajasini o'rganish;
- soliq to'lovchilar soni o'rganish;
- hududlarning yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sish tendensiyasini o'rganish;
- hududlar kesimida soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini o'rganish;
- boqimanda qarzdorlik summalarining va ortiqcha to'lov summalarining o'zgarish dinamikasini o'rganish h.k.

Shuningdek 2020-2024-yillarda aholining daromadlarini izchil ortib borishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha tushumlarning o'sish sur'ati davlat byudjeti daromadlarining o'sish sur'atiga nisbatan past darajada bo'lmoqda. Ushbu holat avvalo, jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha stavkalarni optimallashtirilishi evaziga soliq yukinining qisqarib borganligidan dalolat beradi. Buni eng kam ish haqining o'sish sur'atini yuqoriligi ham tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlil va natijalardan xulosa qiladigan bo'lsak 2020-2024-yillarda mamlakatimiz aholisi soni, YAIM, davlat byudjeti daromadlari va eng kam ish haqining o'sishi yuqori bo'lishiga qaramasdan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i YAIM va davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega ekanligiga nisbatan bu ko'rsatkichlarni kengroq mushohada yuritishni talab etadi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Abduraxmonov O. (2005). *Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari. / Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, B. - 52-53.*

Khan, R., & Abdullah, M. (2022). *Personal Income Tax Efficiency: A Cross-Country Analysis. Economic Studies Review.*

Kravchenko I.A. (1989). *Nalogovye reformy 80-x gg. v SShA: sotsialno-ekonomicheskii aspekt. –M.: NIFI, S.9.*

Lee, S. (2024). *Innovative Approaches to Personal Tax Collection in Developed Countries. Fiscal Policy Journal.*

Rikardo D., Sochineniya T. (1955). *Nachalo politekonomii i nalogovogo oblojeniya. Per. s ang. –M.: Gospolitizdat. 186 s.*

Savchenko N.B. (2023). *Sovershenstvovanie mexanizma nalogooblojeniya predprinimatelskoy deyatel'nosti fizicheskix lis – naymodateley. Avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni k.e.n. – M.: 27 s.*

Vahobov A., Jo'raev A. (2009). *Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 448 bet.*

Xomma A., Tangirqulov A., Toshmatov SH., Norqo'ziyev I. va Roziqovlar N. (2011) *Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanma. –T.: O'quv qo'llanma, "Yangi asr avlodi".*

Zavalishina I. (2005). *Soliqlar: nazariya va amaliyot. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", -544 b.*